

TASDIQLAYMAN

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti moliya-iqtisodiyot ishlari
bo'yicha prorektori



S.Z. Toshmatov

” “

TANLOV BO'YICHA TEXNIK HUJJATLAR

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining B o'quv bino 1-qavatini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlashni e'lon qiladi.

Xizmat nomi: Toshkent axborot texnologiyalari universitetining B o'quv bino 1-qavatini joriy ta'mirlash.

Tanlov o'tkazish shakli: elektron shaklda.

Shartnoma rasmiylashtirish tili: o'zbek tilida.

Xarid qilish valyutasi: so'm.

Moliyalashtirish manbasi: budjetdan tashqari mablag'lar.

Shartnomaning boshlang'ich bahosi: 828 337 755 (sakkiz yuz yigirma sakkiz million uch yuz o'ttiz yetti ming yetti yuz ellik besh so'm).

Tanlov ishtirokchilariga tanlash bo'yicha xarid qilish qoidalariga doir tushuntirishlar yuzasidan ishtirokchilar bilan aloqada bo'ladigan shaxs:

davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassis – Mustafoyev Muslimbek,
tel: (94) 000 08 09.

Tanlov hujjatlarini qabul qiladigan hamda tanlov o'kaziladigan manzil:
e-tender.uzex.uz.

Takliflarni taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana:

maxsus axborot portaliga lot joylashtirilgan kundan boshlab 7 (yetti) kun davomida.

Buyurtmachining yuridik manzili:

Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi 108-A uy.

Tanlov hujjatlarini rasmiylashtirish talablari:

tanlov ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli;

tanlov hujjatlarida tuzatishlarga (matn, so'z va raqamlarni bo'yash) yo'l qo'yilmaydi, agarda hujjatlarda tuzatishlar aniqlansa, ushbu tanlov hujjati komissiya tomonidan chetlatiladi;

tanlash ishtirokchisi taqdim etayotgan ma'lumot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

Tanlovga taqdim etiladigan hujjatlar:

tashkilotning ushbu xizmatni taqdim etish huquqini tasdiqlovchi hujjat yoki sertifikat;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarmi to'lash bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma;

tashkilotning ro'yhatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi (tashkilot rahbari tomonidan muxr va imzo bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim);

tashkilotning hisobida ishni bajarish uchun yetarlicha mablag' mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (boshlang'ich so'maning yetmish foiz miqdorida bo'lishi lozim va bank tomonidan tasdiqlanishi shart);

tashkilotda ishlovchi xodimlar to'g'risida ma'lumot (oliy ma'lumotli rahbar, muhandis, texnik hamda kamida doimiy ishlovchi o'n nafar malakali ishchilari mavjudligi to'g'risida ma'lumot);

yetkazib beruvchi tashkilot oxirgi uch yil davomida bajargan qurilish ishlari to'g'risida ma'lumot (eng kamida har bir yil uchun uch yuz mln so'mlik shartnomalar bajargan bo'lishi lozim);

mazkur xizmatni bajarish uchun zarur bo'lgan zamonaviy asbob-uskunalarining mavjudligi to'g'risida ma'lumot;

bajariladigan ishlarga kafolat hamda belgilangan muddat ichida qilingan ishlardan nuqsonlar va kamchiliklar aniqlansa, ularni qisqa muddatda buyurtmachi talabiga muvofiq ravishda bartaraf etilishini ta'minlash to'g'risida kafolat xati;

tanlov ishtirokchilari bajariladigan ishlar bilan oldindan tanishib chiqqanligi to'g'risida ma'lumot (buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim).

Komissiya a'zolari:

Bosh hisobchi



A. Amirov

Bosh muhandis



M. Nazarov


Korrupsiyaga qarshi kurashish

"komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi



M. Umurzoqov

Yuristkonsult



T. Tojibayev

Komissiya kotibi:

Davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxasis



M. Mustafoyev